




*Shahrisabz davlat Pedagogika instituti
Tillar fakulteti O'zbek tili va adabiyoti kafedrası
o'qituvchisi va O'zbek tili va adabiyoti
yo'nalishi 1-20-guruh talabasi Yodgorova
Husniyabonu Otabek qizining Qashqadaryo
viloyati Shahrisabz shahri 1-IDUM 9-"F" sinfi
uchun ONA tili fanidan **"Bog'langan qo'shma
gaplar mavzusini mustahkamlash"** mavzusida
tayyorlagan bir soatlik ochiq*

Dars ishlanmasi





Darsning loyihasi

<i>Mavzu</i>	<i>Bog'langan qo'shma gaplar mavzusini mustahkamlash</i>
<i>Maqsad va vazifalar</i>	<p>Darsning maqsadi:</p> <p>a) ta'limiy maqsad: o`quvchilarga bog'langan qo'shma gaplar hamda uni mustahkamlash to'g'risida ma'lumotlar berish, ona tilini mukammal o'rganishning ahamiyati, inson hayotida, dunyoqarashining kengayishida badiiy asarlarning o'rni haqida, ona tilini e'zozlash, qo'shma gap, bog'langan qo'shma gap, teng bog'lovchilar va ularning turlari haqida nazariy bilim berish;</p> <p>b) tarbiyaviy maqsad: o`quvchilarni Vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularga istiqlolning ahamiyatini tushuntirish, mehnatsevarlikka, o`zini va o`zgalarni hurmat qilishga, oilani qadrlashga, Vatanni ardoqlashga, to'g'riso'z bo'lishga, go'zal insoniy fazilatlarni egallashga o'rgatish, do'stlik, hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini shakllantirish;</p> <p>d) rivojlantiruvchi maqsad: o`quvchilarning og`zaki va yozma nutqini, mustaqil va erkin fikrlash ko'nikmalarini, nutqiy kompetensiya (tinglab tushunish, o`qish, so`zlash, yozish)ni rivojlantirish;</p> <p>Vazifalar: o`quvchilarda mavzuga nisbatan qiziqish uyg`otish, ularda mavzu asosida bilim va ko'nikmalarni shakllantirish;</p> <p>- mavzuga oid berilgan savol va topshiriqlarni o`quvchilar tomonidan guruh holatida o`zlashtirib olishlari hamda</p>



	<p>berilgan topshiriqlar qay darajada o`zlashtirilganligini nazorat qilish, ularning bilimni baholash.</p>
<p><i>O`quv jarayonining mazmuni</i></p>	<p>O`quvchilarning “Bog’langan qo’shma gaplar” haqidagi bilimlarini umumlashtirish, uning qo’shma gapning boshqa turlaridan farqini tushuntirish, mavzu yuzasidan olingan ko’nikmalar bilan o’rtoqlashish va kelgusida, erkin fikrlashlariga, mavzuga oid test topshiriqlarini bajara olishlariga erishish</p>
<p><i>O`quv jarayonini amalgam oshirish texnologiyasi</i></p>	<p><i>Dars turi: aralash</i></p> <p><i>Dars usuli: induktiv</i> (amaliyotdan nazariyaga qarab borish).</p> <p><i>Dars shakli: jamoa bilan ishlash</i></p> <p><i>Metodlar: “O’zim tekshiraman”, “Aqliy hujum”, “Chalkash ma’lumotlar”, “Ilg’ab ol”, “Davom ettir”</i></p> <p><i>Vosita:</i> darslik, mavzuga oid ko`rgazmali qurollar, tarqatma materiallar.</p> <p><i>Nazorat turi:</i> og`zaki va yozma nazorat.</p> <p><i>Baholash: Mozaika shaklida (shartlarda g'olib guruhlarga mozaika qismlari taqdim etiladi)</i></p>
<p><i>Kutiladigan natijalar</i></p>	<p><i>O`qituvchi:</i> mavzuni qisqa vaqt ichida o`quvchilar tomonidan o`zlashtirishiga erishadi. O`quvchi faolligini oshiradi. O`quvchilarda mavzuga nisbatan qiziqish uyg`otadi. Bir darsda barcha o`quvchi baholanadi. O`quvchilar tomonidan darsni mustaqil o`rganish va uni xotirada saqlash, boshqalarga yetkazish, savol berish va savollarga javob berishga, fikrini asoslay olishga o`rgatadi.</p>



	<p>O`quvchi: yangi bilimlarni egallaydi. Nutqi rivojlanadi. Jamoa bilan ishlashni o`rganadi. Qisqa vaqt ichida ko`p ma`lumotga ega bo`ladi. Bo`sh vaqtini besamar o`tkazmaslikka odatlanadi. Qo`shma gap turlaridan o`z nutqida o`rinli foydalanishga intiladi.</p>
<p>Kelgusi rejalar</p>	<p>O`qituvchi: pedagogik texnologiyalarni o`zlashtirish va darsda tatbiq etish, takomillashtirish, o`z ustida ishlash. Pedagogik mahoratni oshirish.</p> <p>O`quvchi: mustaqil ishlashni o`rganadi. O`z fikrini ravon bayon qila oladi. Shu mavzu asosida qo`shimcha materiallar izlaydi, ularni o`rganadi. Do`stona muhitda hamkorlikda ishlash ko`nikmasi shakllanadi. Go`zal insoniy fazilatlar va yomon xislatlarni bir-biridan ajratishni bilib oladi.</p>

Darsning bosqichlari taqsimoti

T/r	Dars bosqichlari	Vaqti
1.	<i>Darsning tashkiliy qismi</i>	5 daqiqa
2.	<i>O`tilgan mavzuni so`rash</i>	10 daqiqa
3.	<i>Yangi mavzuni yoritish</i>	7 daqiqa
4.	<i>Mustahkamlash</i>	15 daqiqa
5.	<i>Darsni baholash va yakunlash</i>	5 daqiqa
6.	<i>Uyga vazifa</i>	3 daqiqa



Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism:

- 1) o`qituvchi o`quvchilar bilan salomlashadi;
- 2) o`qituvchi navbatchi hisobotini tinglaydi va sinfxona tozaligini nazorat qiladi;
- 3) o`quvchilar kun yangiliklari haqida axborot beradilar;
- 4) o`qituvchi o`quvchilarning uyga berilgan vazifalarini so'raydi.

O`qituvchi o`quvchilarni bugungi dars rejasi bilan tanishtiradi:

Dars rejasi:

I. Yoshlikda olingan bilim toshga o'yilgan naqsh kabidir. (Uyga berilgan vazifa “O’zim tekshiraman”, “Aqliy hujum” usullari orqali so’rab olinadi)

II. Bilim takrorlash va izlanish mevasidir. (O’tilgan mavzu “Chalkash ma’lumotlar” usuli orqali takrorlanadi)

III. Fikrsiz aqlning zangi bo'ladi, Ilm-la egovla, yangi bo'ladi. (Mavzu “Davom ettir” usullari orqali mustahkamlanadi)

IV. Ilm ko'p, umr oz, zarurini o'rgan. (Dars xulosalanadi, o'quvchilar baholanadi, uyga vazifa beriladi)

O`qituvchi darsni “Bahs: erkin muloqot va munozara” shaklida olib boradi. Baholash mezonini va oltin qoidalar eslatib o`tiladi:

- **Darsga o'z vaqtida kel;**



- O'zgaralar fikrini hurmat qil;
- Vaqtdan unumli foydalan;
- O'rgan va o'rgat;
- O'zgarishni o'zingdan boshla;
- Kelib ketma, bilib ket;

Dars shiori o'qituvchi tomonidan eslatiladi:

A'lo o'qish burchimiz,

Beshga yetar kuchimiz.

O'qituvchi jahonda va yurtimizda 2022-yil 17-dekabr kunida yuz bergan voqealar, kun yangiliklarini o'quvchilardan so'raydi. Sinf o'quvchilari o'qituvchi va o'quvchilar hamkorligida uchta guruhga bo'linadi: "Iftixor", "Shijoat", "Muruvvat" jamoalari bir-birlari bilan bahslashishadi.

I. O'tilgan mavzuni so'rash:

O'qituvchi o'quvchi bilan birgalikda "O'zim tekshiraman" usulida uyga berilgan topshiriqni tahlil qiladi.

"O'ZIM TEKSHIRAMAN" USULI

72-mashq. O'zingiz sevgan badiiy asardan oltita bog'langan qo'shma gap topib, ko'chiring. Bog'lovchi vositalarni tushuntiring.

1. Omon odam otmagan, **biroq** undan ko'plar qo'rqishadi. (Shukur Xolmirzayev, "Omon ovchining o'limi") - *zidlov bog'lovchisi yordamida bog'langan qo'shma gap*
2. Vatan mensiz yashashi mumkin, **lekin** men Vatansiz yashay olmayman. (Ozod Sharafiddinov, "O'lsam, ayrilmasman quchoqlaringdan") - *zidlov bog'lovchisi yordamida bog'langan qo'shma gap*



3. Bir mahal muyulishga kelganlarida qayerdadir chaqmoq chaqilgandek bir nima

Yilt etdi-da, ikkalalarining ham ko'zlari qamashib ketdi. (Asqad Muxtor, "Chinor") -*biriktiruv bog'lovchisi yordamida bog'langan qo'shma gap*

4. Oy sekin-sekin havolanib terak bo'yi ko'tarildi va qimirlamay osilib qoldi.

(Said Ahmad, "Ufq") - *biriktiruv bog'lovchisi yordamida bog'langan qo'shma gap*

5. Ba'zan qurbaqalarning qurullashi quloqqa chalinib, kishiga rohat beradi, **ba'zan** itlarning vovullashi bu ovozlarni bosib ketadi. (Asqad Muxtor, "Chinor") -

ayiruv bog'lovchisi yordamida bog'langan qo'shma gap

6. Yaxshi yaxshiga yondashtiradi, yomon esa yo'ldan adashtiradi. (Maqol) – *esa so'zi yordamida bog'langan qo'shma gap*

O'qituvchi mashq tahlilini tugatgach, o'quvchilarga daftarlarini yig'ib oladi, aylanma daftarlarni tarqatadi, ularning daftarlariga bugungi sana va mavzuni qayd etishlarini topshiradi. Uchta jamoaga "Aqliy hujum" usulidan foydalanib, o'tilgan mavzular yuzasidan savollar bilan murojaat qiladi:

"AQLIY HUJUM" USULI

"Shijoat" jamoasi

1. Gap uchun muhim belgi nima? **Javob: kesimlik**

2. Kesimlik belgisining miqdoriga ko'ra gap necha xil bo'ladi va qanday turlarga bo'li-



nadi? **Javobi ikki xil bo'ladi: sodda va qo'shma gaplar.**

3. Gapning kesimlik belgisi qanday kesimlik shakllari orqali ifodalanadi?

Javob: zamon, shaxs-son, tasdiq, inkor, mayl shakllari orqali

4. Qanday gap qo'shma gap hisoblanadi? **Javob: ikki yoki undan ortiq sodda gap-**

ning o'zaro grammatik hamda mazmuniy munosabatidan tashkil topgan va ohang tugalligiga ega bo'lgan gaplar. Masalan: *Vaqting ketdi – naqding ketdi.*

5. Bog'langan qo'shma gap qismlari qanday vositalar yordamida bog'lanadi?

Javob: 1) teng bog'lovchilar; 2) teng bog'lovchi vazifasidagi vositalar; 3) bo'lsa, esa so'zlari yordamida

6. Bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari qanday vositalar yordamida bog'lanadi?

Javob: talaffuzda ohang yordamida, yozuvda esa vergul, ikki nuqta, tire, nuqtali vergul tinish belgilari yordamida

7. Qaysi bog'ovchi vositalardan keyin vergul qo'yiladi? **Javob: qo'shma gap qismlarini bog'lagan –u, -yu, -da vazifadosh bog'lovchilaridan keyin. Masalan: *Qo'ng'iroq chalindi-yu, dars boshlandi.***

“Iftixor” jamoasi



1. Qo'shma gap qismlari deganda nimani tushunasiz?

Javob: qo'shma gapni tashkil etgan sodda gaplarni

2. Haqiqiy do'stlarning sadoqati boshga ish tushganida bilinadi. Bu tuzilishiga ko'ra gapning qaysi turiga mansub? **Javob: sodda gap, chunki grammatik asoslar – sadoqati bilinadi.**

3. Har qanday sodda gap o'zaro bog'lanib, qo'shma gapni hosil qila oladimi? **Javob: Yo'q, faqat o'zaro mazmuniy muvofiq bo'lgan gaplarga bir-biri bilan bog'lanib, qo'shma gapni tashkil etadi. Masalan: *Qor yog'di va gullar ochildi* yoki**

Bahor keldi, paxta terimi boshlandi gaplarida ikkita grammatik asos bo'lsa ham, mazmunan muvofiq kelmagani uchun qo'shma gap bo'lolmaydi.

4. Qismlarining qanday bog'lovchi vositalar yordamida bog'lanishiga ko'ra ko'ra qo'shma gaplar qanday guruhlariga bo'linadi? **Javob: 3 guruhga bo'linadi: 1. Bog'langan qo'shma gaplar. 2. Ergashgan qo'shma gaplar. 3. Bog'lovchisiz qo'shma gaplar.**

5. Mazmuniy munosabatiga ko'ra teng bog'lovchilar necha xil bo'ladi?

Javob: to'rt xil: 1) biriktiruv bog'lovchilari; 2) zidlov bog'lovchilari; 3) ayiruv bog'lovchilari; 4) inkor bog'lovchisi

6. Qaysi bog'lovchi vositalardan oldin vergul qo'yiladi? **Javob: ammo, lekin, biroq,**



Balki teng bog'lovchilaridan oldin; ya'ni, chunki, negaki, toki ergashtiruvchi bog'lovchilaridan oldin

7. –u, -yu, -da vazifadosh bog'lovchilari bog'langan qo'shma gapning qaysi turini hosil qilishda ishtirok etadi? Siz uni qanday farqlaysiz? **Javob: 1) –u, -yu, -da vazifadosh bog'lovchilari biriktiruv bog'lovchili yoki zidlov bog'lovchili bog'langan qo'shma gap qismlarini bog'lashda ishtirok etadi; 2) ularni bir-biridan farqlash uchun qo'shma gap kesimlariga e'tibor beramiz: kesimlar bo'lishli shaklda qo'llansa, biriktiruv bog'lovchili bog'langan qo'shma gap, kesimlarning biri bo'lishli, ikkinchisi bo'lishsiz shaklda bo'lsa, zidlov bog'lovchili bog'langan qo'shma hisoblanadi: *Osmonni bulut qopladi va yomg'ir yog'di* (Biriktiruv bog'lovchili bog'langan qo'shma gap); *Osmonni bulut qopladi, lekin yomg'ir yog'madi*. (Zidlov bog'lovchili bog'langan qo'shma gap); 3) –u, -yu, -davositalarining o'rniga va yoki lekin bog'lovchilaridan mosini qo'yib ko'ramiz: *Eshik ochildi-yu, xonaga sinfdoshlarim kirib kelishdi* (va bog'ovchisini almashtirish mumkin); *Eshik ochildi-yu, xonaga hech kim kirmadi* (lekin bog'ovchisini almashtirish mumkin).**

“Muruvvat” jamoasi

1. Berilgan gapni davom ettiring va bog'langan qo'shma gap hosil qiling: *Rostgo'ylik odamni kamolotga yetaklaydi...* **Javob: 1. Rostgo'ylik odamni kamolotga yetaklaydi**, yolg'onchilik esa uni halokatga olib boradi. 2. *Rostgo'ylik odamni kamolot-*



ga yetaklaydi , biroq yolg'onchilik uning obro'yini to'kadi.

2. Bitta kesimlik belgisiga, mazmuniy va ohang tugalligiga ega bo'lgan gap qanday gap? **Javob: sodda gap**

3. Bog'langan qo'shma gap deb nimaga aytiladi? **Javob: qismlari teng bog'lovchilar, teng bog'lovchi vazifasidagi vositalar yoki bo'lsa, esa so'zlari yordamida bog'langan qo'shma gap bog'langan qo'shma gap deyiladi.**

4. Qaysi vositalar ergashgan qo'shma gap qismlarini bog'laydi? **Javob: 1) ergashtiruvchi bog'lovchi; 2) –sa shart mayli shakli; 3) –ki yuklamasi; 4) deb so'zi; 5) nisbiy so'zlar; 6) ko'makchili qurilmalar**

5. Bog'langan qo'shma gap qismlari qanday qoliplar asosida bog'lanadi?

Javob:1) teng 'lovchi

2)teng bog'lovchi i vazifasidagi vosita

3) bo'lsa, esa laridan biri

6.Bog'langan qo'shma gap qismlarini bog'lovchi vazifadosh bog'lovchilar qaysilar?

Javob: 1) -u, -yu, -da, ham kuchaytiruv – ta'kid yuklamalari; 2) bilan ko'makchisi; 3) goh, ba'zan payt ravishlari; 4) bir soni



7. Bog'langan qo'shma gap qismlari orasida qachon tinish belgisi ishlatilmaydi?

Javob: va, hamda teng bog'ovchilari qo'llanganida.

“CHALKASH MA'LUMOTLAR” USULI

O'quvchilarning har biriga alohida-alohida jadval tarqatiladi.

3-topshiriq. O'qing. Bog'lovchi vositalariga qarab, bog'langan qo'shma gap turlarini to'g'ri aniqlang.

T/r	Bog'langan qo'shma gapning turi	Bog'langan qo'shma gaplar
1	Biriktiruv bog'lovchilari yordamida bog'langan qo'shma gap	Nuri goh sevinib, shirin xayollarga botadi, goh butun vujudini titroq bosadi.
2	Ayiruv bog'lovchilari yordamida bog'langan qo'shma gap	Kechqurun otam keldi va unga butun voqeani aytib berdim.
3	Inkor bog'lovchisi yordamida bog'langan qo'shma gap	Bu sohaning ustasi o'z so'zini aytar, lekin biz o'ylagan imorat, taxminan, shu shaklda bo'ladi.
4	Zidlov bog'lovchilari yordamida bog'langan qo'shma gap	Mashina to'xtadi-da, undan bir kishi tushdi.
5	Biriktiruv bog'lovchilari yordamida bog'langan qo'shma gap	Na turmushida halovat bor, na yemishida rohat bor.

O'quvchilar o'tilgan mavzularda olgan bilimlari asosida chalkash ma'lumotlarni to'g'rilab, daftarga ko'chirib yozadilar.



T/r	Bog'langan qo'shma gapning turi	Bog'langan qo'shma gaplar
1	Ayiruv bog'lovchilari yordamida bog'langan qo'shma gap	Nuri goh sevinib, shirin xayollarga botadi, goh butun vujudini titroq bosadi.
2	Biriktiruv bog'lovchilari yordamida bog'langan qo'shma gap	Kechqurun otam keldi va unga butun voqeani aytib berdim.
3	Zidlov bog'lovchilari yordamida bog'langan qo'shma gap	Bu sohaning ustasi o'z so'zini aytar, lekin biz o'ylagan imorat, taxminan, shu shaklda bo'ladi.
4	Biriktiruv bog'lovchilari yordamida bog'langan qo'shma gap	Mashina to'xtadi-da, undan bir kishi tushdi.
5	Inkor bog'lovchisi yordamida bog'langan qo'shma gap	Na turmushida halovat bor, na yemishida rohat bor.

"Ilg'ab qol" o'yini

Matnni tinglang. Unda qo'llangan bog'langan qo'shma gaplarni aniqlang. Xotirangizda saqlanib qolgan bog'langan bog'langan qo'shma gaplarni yozing va turini ayting.

Matn haqidagi xulosangizni ham bog'langan qo'shma gap shaklida ifodalang.

Donishmandning o'limi

Qadim zamonda tog'lar bag'ridagi bir qishloqda ajoyib donishmand yashagan ekan. U juda nuroniy va oqil ekan. Turli joylardan uning oldiga odamlar maslahat uchun kelar ,



donishmandning ularga aytgan so'zlari esa doim foyda berar ekan. Hamqishloqlari uning umri davomida biron marta ham yolg'on gapirganini eslay olishmas ekan.

Bir kuni donishmand atrofidagi odamlarga g'amgin holatda "Ertaga quyosh chiqmaydi", - debdi va kulbasiga kirib ketibdi. Qishloqda sarosima boshlanibdi. Ayrimlar o'zini o'ldirmoq-chi, ayrimlar narsalarini yig'ishtirib qishloqdan chiqib ketmoqchi bo'libdi, ayrimlar esa bir joyga to'planib ibodat qila boshlabdi.

Ertasiga tong paytida qishloq ahli bu "dahshatli" voqeani birgalashib kutib olish uchun bir joyga to'planibdi. Oradan biroz vaqt o'tibdi va quyosh chiqa boshlabdi. Hamma hayron bo'lib qolibdi. Birozdan so'ng hushlarini yig'ib, bu "yolg'on" ning

sababini so'rash uchun donishmand cholning kulbasiga kelishibdi. Cholni chaqirishibdi, lekin hech bir sado bo'lmabdi.

Donishmand shu kecha olamdan o'tgan ekan...

Ey farzand, bilginki, hayotda donishmandlar xuddi quyosh kabidirlar. Insonlar hayotlari davomida ularning pand-u nasihatlaridan bahramand bo'ladilar, donishmandlarning o'limi esa quyoshning botishiga o'xshaydi. Odamlar qorong'ulikda yo'llarini topa olmaydilar va ilmsizlik zulmati ularning adashib ketishlariga sababchi bo'ladi.

1. Turli joylardan uning oldiga odamlar maslahat uchun kelar , donishmandning ularga aytgan so'zlari esa doim foyda berar ekan.
2. Bir kuni donishmand atrofidagi odamlarga g'amgin holatda "Ertaga quyosh chiqmaydi", - debdi va kulbasiga kirib ketibdi
3. Ayrimlar o'zini o'ldirmoq-chi, ayrimlar narsalarini yig'ishtirib qishloqdan chiqib ketmoqchi bo'libdi, ayrimlar esa bir joyga to'planib ibodat qila boshlabdi.
4. Oradan biroz vaqt o'tibdi va quyosh chiqa boshlabdi.
5. Cholni chaqirishibdi, lekin hech bir sado bo'lmabdi.



6. Insonlar hayotlari davomida ularning pand-u nasihatlaridan bahramand bo'ladilar, donishmandlarning o'limi esa, quyoshning botishiga o'xshaydi.

7. Odamlar qorong'ulikda yo'llarini topa olmaydilar va ilmsizlik zulmati ularning adashib ketishlariga sababchi bo'ladi.

Xulosa: 1. Yoningda yurgan, sen uchun aziz bo'lgan insonlarni tirikligida qadrla, **lekin** ularni o'z vaqtida e'zozlamaganing uchun o'kinma. Chunki, endi foydasi yo'q.
(Zidlov bog'lovchili bog'langan qo'shma gap)

2. Donishmandlar hayotimizni yorituvchi yo'lchi yulduz bo'lishadi va biz hayotda ularning purhikmat durdonalari orqali o'z yo'limizni topib olamiz.
(Biriktiruv bog'lovchili bog'langan qo'shma gap)

3. Bilimsiz odamlar qorong'ulikda na yo'llarini topa oladilar, na ilmsizlik zulmati ularning hayotini tark etadi.
(Inkor bog'lovchili bog'langan qo'shma gap)

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

Yangi mavzuni mustahkamlash uchun o'qituvchi **"Davom ettir"**, **"Iztopar"** usullari-dan foydalanadi.

O'qituvchi: o'quvchilar, 4-topshiriqda *bo'lsa, esa* so'zlari yordamida bog'langan

qo'shma gap berilmagan bo'lsa ham, biz siz bilan "Davom ettir" usulida berilgan gap - larni davom ettirishga harakat qilib ko'raylik.



“DAVOM ETTIR” usuli:

Soʻzning yumshogʻi gʻazabni soʻndiradi,

Rostgoʻylik odamni kamolotga yetaklaydi,

Dono aybni oʻzidan axtaradi,

Oʻquvchilar gaplarni davom ettiradilar, gapda qoʻllangan tinish belgilarini tushuntiradilar, gapda ifodalangan munosabatni izohlaydilar:

1. Soʻzning yumshogʻi gʻazabni soʻndiradi, **soʻzning qattigʻi esa odamni oʻldiradi.**
2. Rostgoʻylik odamni kamolotga yetaklaydi, **yolgʻonchilik esa uni halokatga olib boradi.**
3. Dono aybni oʻzidan axtaradi, **ahmoq boʻlsa doʻstini ayblaydi.**

VI. Darsni yakunlash va uyga vazifa berish.

Oʻqituvchi darsni yakunlar ekan, oʻquvchilarga dars jarayonida qoʻllangan doskada yozib qoʻyilgan tayanch soʻz va iboralar maʼnosini unutmazlikni eslatib oʻtadi.

Jamoalarga berilgan shijoat, iftixor, muruvvat soʻzlaring lugʻaviy maʼnosini daftarga qayd etib qoʻyishni eslatadi:

Shijoat: *harakat, faoliyatda mardona; jasoratli intilish; mardlik, jasorat*

Iftixor: *shon-sharaf hissi; faxr; shon-sharaf keltiruvchi, faxrlansa arziydigan ish*

Muruvvat: *odamgarchilik yuzasidan qilingan yaxshilik, saxovat va himmat*



Uyga vazifa:

6-topshiriq. Gaplarni o'qing, bo'lsa, esa bog'lovchilarining tagiga chizing.

Gaplarni zidlov bog'lovchilari yordamida bog'langan qo'shma gaplarga aylanti-ring.

1. Bulbul gulzorni izlaydi, boyo'g'li esa doim xarobani ko'zlaydi.
2. Ahmoqning yuragi og'zida, aqlining tili esa yuragida bo'ladi.
3. Yomon ot o'z egasini chohga qulatadi, yaxshi ot esa o'z sohibini halokatdan

qutqaradi.

4. Nodon mol-dunyo yig'adi, aqlli odam bo'lsa, boshqalarga yordam berib, bundan rohatlanadi.

5. Sabrning boshi achchiq, oxiri esa shirindir.

Jamoalar qo'lga kiritgan natijalar hisob-kitob qilinadi. G'olib jamoa aniqlanadi.

O'quvchilar bahosi izohlab beriladi.

4. **Dars xulosasi: Ilmdan bir shu'la dilga tushgan on,
Shunda bilursanki, ilm bepoyon.**

(Firdavsiy)



Foydanilgan adabiyotlar:

1. G'afur G'ulom "Shum bola", Toshkent, "Yangi asr avlodi" nashriyoti, 2019.
2. N. M. Mahmudov, A. Nurmonov, A. Sh. Sobirov "Ona tili", Toshkent, "Tasvir" nashriyot uyi, 2019.
3. G.Ziyodullayeva, M.Mamadiyeva "Hikmat durdonalari". Toshkent., "Tafakkur" nashriyoti, 2012 .
4. M.Hamrayev. "Adabiyot" o`quv qo`llanma; Toshkent , "Sharq" nashriyoti, 2019.
5. "O`zbek xalq maqollari". Toshkent., "Yangi asr avlodi"; 2018.
6. N. Rasulova "Ona tilidan ma'ruzalar", Toshkent, "Nurafshon ziyo yog'dusi" nashriyoti, 2018.



Xulosa

Darsni xulosalar ekanmiz, shuni aytishimiz mumkinki, zamonaviy darsga bo`lgan talab, o`quvchi ongi va qiziqishlarining kengayishi, talabning ortib borishi bizni yanada faollikka, tirishqoqlikka, izlanuvchanlikka chorlaydi. Hozirda o`qituvchining asosiy vazifasi o`quvchini chuqur va puxta bilim bilan qurollantirish, tushunish, o`zlashtirish orqali shaxsning har tomonlama rivojlanishini ta`minlash, ularda bilim olish ehtiyojini tarbiyalash. Shaxsning to`laqonli kamol topishi uchun, kelajakning ishonchli, mustahkam poydevori qilib shakllantirish bizning barcha faoliyatimizning bosh asosi bo`lmish bir soatlik darsga bog`liq. Zero, Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta`kidlaganidek, “Sifatsiz o`tilgan bir soatlik dars-kelajakka qilingan xiyonatdir”.

Ushbu dars ishlanmasidagi interfaol metodlar o`quvchida zukkolik, tirishqoqlik, chaqqon va aniq harakat qilish, bilimlarni puxta egallash ko`nikmalarini hosil qiladi. Mavzuni tabaqalashtirish (guruhlash), modullarga bo`lib o`rgatish, o`quvchilar hamkorligidagi darsni tashkil qilish, mustaqil kichik tadqiqotlarga yo`naltirish bilim samaradorligiga olib kelishi aniqdir.